

BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASI YER-SUV MUNOSABATLARI TARIXI

Bibirajab Yuldosheva

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Umidjon Baqoyev

Buxoro davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11482516>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro Xalq Sovet Respublikasining yer-suv munosabatlari tarixi bayon etilgan. Maqola turli manbalar hamda ilmiy adabiyotlar o'rganish va tahlil qilish orqali tadqiq etilgan. BXSР hukumati davrida yer-suv munosabatlari boshqa ko'plab sohalar singari ham sovet, ham milliy andoza asosida tartibga solingan. Katta yer egalari yerga egalari musodora qilinib, davlat mulkining roli oshirilgan. Maqolada, shuningdek, yangi yer-suv tizimining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va o'zgarishlarning oqibatlarini haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: respublika, Ziroat nozirligi, yer-suv, dekret, vaqf yerlari.

HISTORY OF LAND-WATER RELATIONS OF THE PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC OF BUKHARA

Abstract. This article describes the history of land-water relations of the Bukhara People's Soviet Republic. The article was researched by studying and analyzing various sources and scientific literature. During the government of the USSR, land-water relations, like many other areas, were regulated on the basis of both the Soviet and the national model. Lands of large landowners were confiscated, and the role of state property was increased. The article also discusses the role of the new land-water system in the country's economy and the consequences of the changes.

Key words: Republic, Agricultural inspectorate, land and water, decree, foundation waqf.

ИСТОРИЯ ЗЕМЕЛЬНО-ВОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ БУХАРСКОЙ НАРОДНОЙ СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКИ

Аннотация. В статье описана история земельно-водных отношений Бухарской Народной Советской Республики. Статья написана путем изучения и анализа различных источников и научной литературы. Во времена правления СССР земельно-водные отношения, как и многие другие сферы, регулировались как на основе советской, так и национальной модели. Земли крупных землевладельцев были конфискованы, возросла роль государственной собственности. В статье также рассматривается роль новой земельно-водной системы в экономике страны и последствия изменений.

Ключевые слова: республика, Сельскохозяйственная инспекция, земля-вода, постановление, земли основания.

Kirish. O'zbek davlatchilik tarixida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi katta o'rin tutadi. Buxoro amirligi 1920-yil qizil armiya tomonidan qulatilganidan so'ng, 8-oktyabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilgan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada chuquqr va inqilobiy islohotlar o'tkazilgan. Jumladan, yer-suv munosabatlarini tartibga soluvchi qator farmon va qarorlar qabul qilingan.

1920-yil 6-8-oktabr kunlarida Buxoro amirining yozgi saroyi Sitorai Mohi Xossada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining birinchi qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilingan. Bu davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik hokimiyati edi. Uning zimmasiga qisqa muddat ichida o'rta asrchilik an'analari meros qolgan amir Buxorosini demokratik davlatga aylantirishdek tarixiy vazifani bajarish tushgan. Qurultoy davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi bo'lgan Buxoro inqilobiy qo'mitasi (Markaziy Revkom), Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi — dastlabki hukumat tarkibini uzil-kesil tasdiqladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Buxoro Xalq Sovet Respublikasi yer-suv munosabatlari tarixining turli jihatlarini “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalariidan o'rganish mumkin. Shuningdek, Q. Rajabov (1999), I.Alimov (2009), K.Rahmonov (2012) kabi olimlar maxsus tadqiqotlar olib borgan.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Mazkur maqolani yozishda tarixiylik, tizimlilik, xolislik, qiyosiy tahlil va statistika usullardan foydalanilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi yer-suv munosabatlari tarixi tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tarixchi olim Kamol Rahmonov yozishicha, agrar munosabatlarni tartibga solish, dehqonlarga yerlarni bo'lib berish masalasida hukumat tomonidan 1920-yilning kuzida va 1921-yil davomida bir qator qonun, qaror, farmon, buyruqlar chiqarilgan [2.53]. Yer to'g'risidagi dekret (qonun) loyihasi dastlab Buxoro Kompartiyasi MK majlisida 1920-yil 20-sentyabrda, so'ngra BXSIR Inqilobiy qo'mitasi (Markaziy revkom) majlisida 1920-yil 24-sentyabr muhokama qilingan. Mazkur qonun agrar sohadagi dastlabki hujjat bo'lib, unda BXSIR iqtisodiy siyosatining tashkiliy asoslari ko'rsatib o'tilgan [3.153].

1921-yil 22-fevralda BKP Markaziy Komitetining kengaytirilgan majlisida boshqa masalalar qatori Yer masalasida muhokama qilingan. Mazkur masala yuzasidan Butunbuxoro Markaziy Revkomi raisi Abdulqodir Muhitdinov so'zga chiqib, yer sotish va sotib olish huquqini saqlab qilishni va yerga xususiy mulkchilik huquqini saqlab qolishni taklif qilgan. Majlisdagi so'l komunistlar Abdulqodir Muhitdinov taklifiga qarshi chiqadilar va barcha yerlarni natsionalizatsiya qilishni talab qiladilar [1.127]. Biroq Markaziy Komitet a'zolarining qo'llab-quvvatlashi natijasida Abdulqodir Muhitdinov taklifi qabul qilingan. Mazkur qarordan norozi bo'lgan so'l komunistlar majlisni tark etishgan. Ammo Komunistik Internatsional (Komintern)ning Buxorodagi vakili Sanjar Isfandiyorov, Fayzi Xodi, RSFSRning BXSIR hukumati huzirdagi muxtor vakili Karim Hakimov taklifi so'l komunistlar syezdga qaytib kelgan. Xullas, so'l komunistlarning bosimi bilan yer to'g'risida rezolyutsiya qabul qilingan [4.144].

1921-yil 2-fevralda BXSIR Markaziy Inqilobiy Komiteti tomonidan “Yer tog'risida” dekret (qonun) qabul qilingan. Mazkur qonuning 1 va 2-moddalarida quyidagicha yozilgan:

“1. Buxoro Respublikasi hududidagi barcha yerlar, suvlar, o'rmonlar va tabiiyboyliklar kimning foydalanishida bo'lishidan qat'iy nazar, yagona xalq mulki hisoblanadi.

2. Barcha vaqf va sobiq amir yerlari, amaldorlarga va shu kabilarga tegishli yerlar mehnatkashlarga bo'lib berilishi lozim. Yerlar mehnat normasi doirasida chorikorlar, mardokorlar, yersiz va kam yerli dehqonlarga taqsimlab beriladi. Bo'sh qolgan yerlarda esa sovet xo'jaliklari, qishloq xo'jalik artellari, shirkatlari tashkil qilingan[4.144]”.

Mazkur hujjatdan ko‘rish mumkinki, barcha yerlar, jumladan vaqf yerlari ham xalq mulki, ya‘ni davlat mulki deb e‘lon qilingan. Vaqf sobiq amir yerlari, amaldor va boylar yerlari, mehnatkashlarga bo‘lib beriladi deb yozilgan.

BXSR Ziroat nazoratining yer sho‘basi tomonidan Buxoro atroflaridagi amir amaldorlariga tegishli bo‘lgan 4000 tanob yer musodara qilinib, 50-60 tanobdan yersiz dehqonlarga bo‘lib berilganligi, Buxoro tumanlarida 1000 tanob yer ro‘yxatga olinib, ishchi hayvonlar va asboblari bilan yersiz, kam yerli dehqonlarga taqsimlanganligi, 1921-yil yozida ziroat nazoratiga 96 million so‘m mablag‘ ajratilganligi bilan bog‘liq ma‘lumotlar manbalarda raqamlar bilan qayd qilingan[2.53].

So‘l kommunistlarning barcha yerlari, jumladan, vaqf va boylarning yerlarini natsionalizatsiya qilish, bu yerlarni kam yerli va yersiz dehqonlarga bo‘lib berish to‘g‘risidagi g‘oyani amalga oshirish uchun Buxoro Xalq Sovet Respublikasida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yetilmagan[4.144]

BKPning so‘l kommunistlari 1921-yil boshlarida RKP(b) Markaziy Komitetiga axborot yozib, unda BXSRda agrar masalani hal qilish borasidagi asosiy kelishmovchiliklar, ixtiloflar to‘g‘risida bayon qilgan. Mazkur ish ko‘rib chiqilib, Turkiston byurosi a‘zosi Y.E.Rudzutakka xulosa yozib berish uchun yuborilgan. Rudzutak mazkur ish yuzasida shunday xulosa yozgan edi: “Buxoro so‘l kommunistlari ruhida yer va boshqa islohotlarni o‘tkazish uchun Buxoroda ijtimoiy tabaqa (yoki hatto xayrihohlar, tarafdorlar) yo‘q. Yerni natsionalizatsiya yoki sotsiolizatsiya qilishni e‘lon qilish 99 foizi dehqonlarning noroziligini keltirib chiqardi. Katta yer egalari (boylar) xo‘jaliklarini tugatishni yuqoridan amalga oshirish mumkin emas. Turkiston tajribasi shuni ko‘rsatdiki, boylarning yerlari berilgan kambag‘allar sovet organlaridan yashirib, oldingi xo‘jayinlariga shariat (diniy qonunlar) bo‘yicha belgilangan foiz mahsulotini bergan. Islohotni o‘tkazish uchun qishloqni tabaqalantirish bo‘yicha katta tashviqot va tashkiliy ishlar qilish zarur[4.145]”.

BXSRda qishloq xo‘jalik rivojini sun‘iy sug‘orishsiz tasavvur qilish qiyin. Hukumat bu masalada yuritgan siyosat va tadbirlar ham gazetalarda bayon qilingan. Ma‘lumki, BXSR hududidagi ekin ekiladigan yerlar asosan Zarafshon daryosi suvi bilan sug‘orilgan. Gazeta materiallarida o‘lkani suv bilan ta‘minlash muammosi bir necha bor Turkiston ASSR va BXSR o‘rtasida muhokama qilinganligi, masalani ijobiy hal qilish uchun ikkala respublika hukumati a‘zolaridan iborat “3 kishilik”, “5 kishilik” komissiya hay‘atlari tuzilganligi haqida ma‘lumotga ega bo‘linadi[2.54]. Manbalarda 1921-yil shartnomasida Samarqandga qarashli 72.885 desyatina yer Zarafshondan sug‘orilmaydi, keyin tekshirish natijasida anglashilgankim, ul yerlar Zarafshon suvi bilan sug‘orilayotgan ekan”, - deb yoziladi. Nihoyat, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarida ikki respublika o‘rtasida olib borilgan muzokaralardan so‘ng, Narpaydaryo ustidan nazorat BXSR qo‘liga o‘tgan[2.54].

Kamol Rahmonov yozishicha, BXSR hukumati mavjud bo‘lgan yillarda ham Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davridagi Zarafshon daryosi suvining 3/1 qismini Buxoroga berilishi bilan bog‘liq shartnoma o‘z kuchida qolgan. Bu esa BXSR hududini suv bilan ta‘minlash hamda yangi yerlarni o‘zlashtirib, dehqonchilik mahsulotlari miqdorini oshirish imkoniyatini chegaralagan. Shuning uchun 1923-1924-yillardagi gazeta maqolalarida Amudaryo suvini BXSR yerlariga yo‘naltirish, suv inshootlari barpo etish bilan bog‘liq ma‘lumotlar ko‘p bayon qilingan .

Gazetaning 1924-yil 2-aprel 70-sonida “Buxoroda ziyod suv yo‘q” nomli maqola berilib, unda suv xo‘jaligi sohasiga malakali mutaxassislarni jalb qilish, chig‘ir o‘rniga mashinalar yordamida Amudaryo suvini yuqoriga ko‘tarib berish, Amudaryodan ariq va kanallar chiqarish ishini jonlantirish masalalari ustida fikr yuritilgan[4.55].

BXSR hukumati davrida qizil armiyaga qarshi kurash tufayli irrigatsiya inshootlari ishdan chiqdi yoki buzib tashlandi. Ariq va kanallarni loyqa va chim bosib, yaroqsiz holga kelib qoldi. Hosildor yerlar tashlandiq joylarga aylandi. Shuning uchun respublikada qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan paxtachilik sohasi ham inqirozli holatga tushgan edi. Bu holat davriy matbuotda chop etilgan. 1921-yilda paxta maydonlari amir davriga nisbatan 30 000 tanobga kamayganligi, 1893-yildan 1917-yilga qadar Buxoroda paxta ekiladigan yerlar maydoni 300 000 tanobgacha bo‘lib, undan olinadigan daromad 25 mln. oltin so‘mni tashkil etganligi ma‘lumotini “Buxoro axbori”ning sahifalarida o‘qish mumkin[2.55].

Gazeta materiallari o‘rganilganida, paxta hosilining keskin kamayganligi omillari sifatida nafaqat sun‘iy sug‘orish inshootlari qarovsiz va yaroqsiz bo‘lib qolganligi, balki Buxoro dehqonlari foydalangan mehnat qurollarining oddiy kurak va ketmondan iboratligi, yetishtirilgan hosil o‘z vaqtida sotilmaganligi, paxta urug‘i va boshqa harajatlar uchun dehqonlarga yordam puli o‘z vaqtida berilmayotganligi kabilardan kelib chiqqanligi qayd qilinadi. Tovar-pul munosabatlarining inqirozi tufayli paxta mahsulotini barter usulida sotish dehqonlarni xonavayron qildi. Chunki sanoat mahsulotlari qimmat va taqchil bo‘lgan.

Arxiv hujjatlaridan birida ma‘lumot berilishicha, 1923-yil yozida O‘rta Osiyo qishloq xo‘jalik bankining Buxoro bo‘limi ochilgan. U Buxoroda paxtachilikni rivojlantirish uchun kredit shirkatlari tashkil etishga qaror qildi. 1923-yil bunday shirkatlardan 7 tasi tuzilgan[2.56].

1924-yil 1-iyulga kelib BXSRda qishloq xo‘jaligi kredit shirkatlarining soni 64 taga yetgan bo‘lib, ularga 9688 kishi a‘zo bo‘lgan[2.56].

Paxta ekuvchi dehqonlarga imtiyozlar berish, paxtaning yangi amerika navini ko‘proq yetishtirish, paxta banklari ochish, dehqonlarni kooperativ tashkilotlar atrofida birlashtirish, paxta shirkatlarini tuzish va kengaytirish masalalarining 1924-yil “Ozod Buxoro” sahifalarida keng miqyosda berilishi BXSRning iqtisodiy jihatdan xom ashyo yetkazib beruvchi mamlakatga aylanib borayotganligini anglatadi.

Manbalarga ko‘ra, BXSR hukumat qancha tirishmasin izdan chiqqan paxtachilik sohasini o‘zi tuzgan istiqbolli rejalar va loyihalar asosida tiklay olmagan. Mamlakatda paxta hosili Birinchi jahon urushidan oldingi darajaga ko‘tarila olmaydi. 1923-yil kuziga kelib ekin ekiladigan yerlarning 80 foiziga urug‘ qadalgan va hosildorlik darajasi ham past bo‘lgan[2.58].

“Buxoro axbori” gazetalarning ma‘lumotlariga ko‘ra, BXSR xo‘jaligida paxtachilik sohasidan keyin g‘allachilik tarmog‘i muhim o‘rin tutganligi anglashiladi. Biroq respublika aholisini o‘zi yetishtirgan g‘alla bilan ta‘minlay olmagan. Bu haqida shunday yozilgan: “Buxoro hukumati tomonidan turli joylardan oling‘on bug‘doy (200.000 pud) Buxorog‘a kelmakda. 44 vagon Peterskiydan, 21 vagon Orenburg va Orskdan Buxorog‘a uzatilib, hozirda 6 vagon yetib kelg‘on”; “Volga-naqliyot” shirkati vositasi bilan Krasnovodskka 2 paroxod bug‘doy kelg‘on. Shundan 680.180 pudi Buxorog‘a yuborilg‘on”, “Savdo-sanoat nazoratining tashabbusi bilan yaqin kunlarda Turkiston Jumhuriyatidan Buxorog‘a 100.000 pud har turli un kelishi kutiladur”.

Demak, ma'lumotlardan aniq bo'ladiki, paxta xom ashyosi evaziga chetdan (asosan RSFSR) bug'doy keltirilishi boshlangan[2.58].

Qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri chorvachilik bo'lib, uning qorako'lchilik tarmog'i haqida "Buxoro axbori" gazetasida ko'plab maqolalar uchraydi. Chorvachilikning holati ham respublika yillarida amirlik davri darajasiga ko'tarilmaganligi maqola va xabarlardan ayon bo'ladi. Masalan, "1890-yilda butun mamlakatda turli nasl qo'y hamda echkilar 800.000 adad bo'lsa, 1916 yilda 2,5 mln.ga qadar oshg'ondur. Bugun (1923-yil) qo'y va echkilar soni 500.000 dan ortiq emasdur, ya'ni 1916-yilga nisbatan 5 barobar kamayib ketg'on", - deb yoziladi "Buxoro axbori"da. "Ozod Buxoro"ning 7-sonidagi "Buxoroda qorako'lchilik ishi" maqolasidan esa: "XX asrning boshlaridan 1913-yilg'a qadar amirlikda har yili 1.500.000-2.000.000 donagacha qorako'lteri yetishtirilg'on. 1920-yilg'a kelib, bu raqam 200.000 donag'a tushib qolg'on. Faqatgina 1922-yilda bu sohada biroz jonlanish bo'lib, 800.000 dona qorako'l terilar yetishtirilg'on", - tarzidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Shuningdek, manbalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ularning narxi muntazam oshib turganligi haqida ma'lumotlar orqali aholining turmush darajasi pasayganligini, narx-navolar esa muntazam oshib ketganligi keng to'xtab o'tilgan.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 3 yil davomida asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi muttasil o'sib borgan, pulning qadrsizlanishi jarayoni kuchaygan.

Qishloq xo'jaligining ipakchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, polizchilik kabi sohalari ham ko'zlangan natijalarni bermaganligi gazetalardagi ma'lumotlarda ochib berilgan.

BXSR iqtisodiyotida muhim o'rin tutgan vaqf mulklariga munosabat masalasi ham gazetalardagi maqola va xabarlarda berib borilgan. Bu masala yangicha tarixiy sharoitda alohida loyihaga talab va ehtiyojni vujudga keltirgan. Mazkur loyiha Abdurauf Fitrat tomonidan 1922-yilning iyun oyida ishlab chiqilgan bo'lib, u 19 moddadan iborat. Fitratning "Vaqf ishlari haqidagi loyiha"si "Buxoro axbori" gazetasida to'laligicha bosilgan. Loyiha vaqf mulklarini hukumat solig'idan ozod etib, ulardan faqatgina ushr solig'i olishni saqlash, vaqf idorasini 5 ta sho'bag'a bo'lish (diniya, ilmiya, moliya, ijara, xo'jalik), asosiy vaqf daromadlarini 6 qismga taqsimlash (maschid va maschid ishlari, maktab va kutubxona, mahkama, oshxona, avlodiy, Makka va Madina vaqflari), mutavallilar faoliyatini nazorat qilish, vaqf mudiriyati xazinasini vujudga keltirish kabilarni o'zida mujassamlashtirgan[2.61].

Gazeta ma'lumotlariga qaraganda, Buxoro, Qarshi, Chorjo'y, Karmana viloyatlarida vaqf idorasiga qarashli 276.737 tanob yerlar borligi, bundan boshqa vaqf idorasi qaramog'ida 57 ta saroy, 10 ta hammom, 23 ta tegirmon, 24 ta bozor joyi, birgina Buxoro shahrida 1769 do'kon hamda 262 ta hovli borligi, 1923 yil vaqf mulklaridan 4. 128. 871 tanga hamda 12. 212 botmon bug'doy olinganligi qayd etiladi[2.61].

Vaqf masalasini hal qilish uchun respublika tarixida birinchi marta 1923-yil oktyabr oyida Butun Buxoro vaqf qurultoyi chaqiriladi. Qurultoy ishida hukumat rahbarlaridan Fayzulla Xo'jayev, Porso Xo'ja, Abdulla Rahimboyevlar ishtirok qilganlar. Qurultoy kun tartibiga 6 ta asosiy, 4 ta qo'shimcha, jami 10 ta masala qo'yildi. Qurultoy faoliyati, unda tinglangan ma'ruzalar, qabul qilingan qarorlar "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalarda batafsil bayon qilingan. Vaqf idorasi mudirining hisobotida Buxorodagi vaqflardek ko'p daromadli vaqflar hech bir mamlakatda bo'lmaganligi qayd qilingan.

Vaqf yerlari va vaqfkor dehqonlar masalasi bilan bog'liq maqolalarda yozilishicha, yerlarning 70-80 foizi ekilmay qolganligi, ijaradorlarning yashirin soliq talab qilayotganligi, hosilning bir qismini eski xo'jayinlariga xufiyona yetkazilayotganligi kabi kamchiliklar ochib tashlangan.

Abdurauf Fitrat ma'lumotlariga ko'ra, vaqf daromatlari hisobidan masjid va madrasalar, tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash, maktab, ta'lim-tarbiya kurslari tashkil etish, dorilmuallimin, muzey, kutubxona, kasalxona, yetimxona, xonaqohlar ochish, gazeta va jurnallar chop etishni loyiha moddalarida batafsil bayon qilingan[4.150].

Xullas, 1923-yil BXSРda vaqf mulklaridan kelgan butun daromat 4 128 871 tanga hamda 12 212 botmon bug'doy bo'lib, uning taxminan 50 foizi masjidlarning imom va muazzinlariga, vaqf idorasiga, qolgani esa maorif va madaniyat ishlari ta'minotiga sarflangan.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, BXSР hukumati davrida asrlar davomida hududda mavjud bo'lgan yer-suv munosabatlari o'zgarishlarga uchradi va bu o'zgarishlar hayotini yer bilan bog'lagan xalqimizni iqtisodiy qiyinchiliklarga yetkladi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining 1921-yil 2-fevralda so'1 kommunistlar ta'siri ostida qabul qilgan "Yer to'g'risida"gi dekretining amaliyotga joriy qilinishi izchillik va iqtisodiy samaraga erishmadi.

REFERENCES

1. Алимов И. Ўзбекистонда вақф мулкларининг тугатилиши (1917–1929). – Тошкент: Фан, 2009. - 164 б.
2. Раҳмонов. К. Бухоро Халқ Совет Ресбуубликаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920–1924-йиллар). – Тошкент. “Абу matbuot-konsalt”, 2012. – 208 б.
3. Ражабов Қ. Бухоро Халқ Республикаси: монархиядан демократия сари дастлабки қадамлар (1920-1924-йиллар) Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар /Даврий тўплам. № 2. – Тошкент. Шарқ, 1999. – Б. 153.
4. Ўзбекистон тарихи (1917–1991-йиллар). Биринчи китоб. (1991–1939 йиллар). – Тошкент. “O'zbekiston”, 2019. – 559 б.
5. Ражабов Қ, Иноятов С. Бухоро тарихи. – Тошкент: “Тafakkur”, 2016. – 468 б.